

# OLIMLAR NIGOHİ

ILMIY OMMABOP JURNAL

6-SON 2026-YIL

ISSN 3060-5458



BUXORO -2026



# OLIMLAR NIGOHI

**ilmiy ommabop jurnal**

**6-son 2026-yil**

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.*

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720096-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

## MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>ADIZOVA GULNAVOZ FARHODOVNA</i>	NOTO'LIQ OILA FARZANGLARIDA AGRESSIVLIK, XAVOTIR VA KOPING STRATE- GIYALARINING O'ZARO ALOQADORLIGI	PSIXOLOGIYA	3
	ВЗАИМОСВЯЗЬ АГРЕССИВНОСТИ, ТРЕВОЖНОСТИ И КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ У ДЕТЕЙ ИЗ НЕПОЛНЫХ СЕМЕЙ		
	THE INTERRELATIONSHIP OF AGGRESSION, ANXIETY, AND COPING STRATEGIES AMONG CHILDREN FROM SINGLE-PARENT FAMILIES		
<i>SALOMOVA SHAXINABONU OLIM QIZI</i>	PUBERTAT DAVRIDAGI QIZLARDA INSULINREZISTENTLIK VA DISLIPIDEMI- YANING O'ZARO BOG'LIQLIGI HAMDA ULARNING METABOLIK SINDROM PATOGENE- ZIDAGI ROLI		6
	ВЗАИМОСВЯЗЬ ИНСУЛИНОРЕЗИСТЕНТНОСТИ И ДИСЛИПИДЕМИИ У ДЕВОЧЕК В ПУБЕРТАТНОМ ПЕРИОДЕ И ИХ РОЛЬ В ПАТОГЕНЕЗЕ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИН- ДРОМА		
	THE INTERRELATION BETWEEN INSULIN RESISTANCE AND DYSLIPIDEMIA IN PU- BERTAL GIRLS AND THEIR ROLE IN THE PATHOGENESIS OF METABOLIC SYNDROME		
<i>IXLOSOV KOMIL MIRZAAXMATOVICH</i>	TA'LIM JARAYONIDA BILIMLARNI TIZIMLASHTIRISH ORQALI FIKRLASH QOBILİYATINI SHAKLLANTIRISH	PEDAGOGIKA	12
	ФОРМИРОВАНИЕ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМАТИЗАЦИИ ЗНАНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	FORMING THINKING ABILITY THROUGH THE SYSTEMATIZATION OF KNOWLEDGE IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>MATCHANOVA MAQSUDA RUZIMBOYEVNA</i>	BAHOLASH NATIJALARINI BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA HIMOYA QILISH MODEL VA ALGORITMLARI	PEDAGOGIKA	17
	МОДЕЛИ И АЛГОРИТМЫ ЗАЩИТЫ ДАННЫХ ОЦЕНИВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН		
	A BLOCKCHAIN-BASED SECURITY MODEL AND ALGORITHMS FOR EDUCATIONAL ASSESSMENT RESULTS		

<i>KO'SHKINBAYEV DAVLETBAY NURJANOVICH</i>	OLYIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI REYTING VA TRANSKRIPTLARNI XAVFSIZ SAQLASH UCHUN BLOKCHAYN ARHITEKTURASINI LOYIHALASH	PEDAGOGIKA	22
	ПРОЕКТИРОВАНИЕ АРХИТЕКТУРЫ БЛОКЧЕЙН ДЛЯ БЕЗОПАСНОГО ХРАНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ РЕЙТИНГОВ И АКАДЕМИЧЕСКИХ ТРАНСКРИПТОВ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ		
	DESIGNING A BLOCKCHAIN ARCHITECTURE FOR SECURE STORAGE OF DIGITAL ACADEMIC RANKINGS AND TRANSCRIPTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS		



**Ixlosov Komil Mirzaaxmatovich**

*Osiyo xalqaro universiteti talabasi*

## **TA'LIM JARAYONIDA BILIMLARNI TIZIMLASHTIRISH ORQALI FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirishning o'quvchi va talabalarning fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda bilimlarni tizimli tarzda uzatish, klasterlash, intellekt xaritalari va jadvashtirish kabi didaktik usullarning mantiqiy, tahliliy va sintetik fikrlash ko'nikmalariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan empirik tajriba natijalari keltiriladi. Tadqiqot davomida tizimlashtirish usullari qo'llanilgan eksperimental guruh natijalari nazorat guruhi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Olingan natijalar bilimlarni tizimlashtirishga asoslangan ta'lim metodikasining o'quvchilarda tizimli va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bilimlarni tizimlashtirish, fikrlash qobiliyati, tizimli tafakkur, didaktik usul, ta'lim jarayoni, mantiqiy tafakkur, kognitiv ko'nikmalar.

## **ФОРМИРОВАНИЕ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМАТИЗАЦИИ ЗНАНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль систематизации знаний в образовательном процессе для формирования мыслительных способностей учащихся. В исследовании представлены результаты эмпирического эксперимента, направленного на определение влияния таких дидактических методов, как кластеризация, интеллект-карты и табличное структурирование, на логические, аналитические и синтетические навыки мышления. Результаты экспериментальной группы сопоставляются с результатами контрольной группы. Полученные данные показывают высокую эффективность методики обучения, основанной на систематизации знаний, в развитии системного и критического мышления учащихся.

**Ключевые слова:** систематизация знаний, способность мышления, системное мышление, дидактический метод, образовательный процесс, логическое мышление, когнитивные навыки.

## **FORMING THINKING ABILITY THROUGH THE SYSTEMATIZATION OF KNOWLEDGE IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Abstract.** This article analyzes the role of systematizing knowledge in the educational process for forming students' thinking abilities. The study presents the results of an empirical experiment aimed at determining the influence of didactic methods such as clustering, mind-mapping, and tabular structuring on logical, analytical, and synthetic thinking skills. The results of the experimental group are compared with those of the control group. The findings show that an instructional approach based on knowledge systematization is highly effective in developing systemic and critical thinking among learners.

**Key words:** knowledge systematization, thinking ability, systemic thinking, didactic method, educational process, logical thinking, cognitive skills.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi va talabalarda tayyor bilimlarni yodlab olishdan ko'ra, ularni mustaqil tahlil qilish, tizimga solish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida[1] ta'lim oluvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim tizimining



ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirishga asoslangan didaktik yondashuvlarning ahamiyatini oshiradi.

Bilimlarni tizimlashtirish - alohida-alohida o'zlashtirilgan tushuncha, fakt va qoidalarni mantiqiy bog'lanishlar asosida yagona yaxlit tizimga birlashtirish jarayonidir. Bu jarayon o'quvchining ayrim ma'lumotlarni mexanik tarzda yodlashdan emas, balki ular o'rtasidagi sabab-natija, qism-butun va umumiy-xususiy munosabatlarni anglashidan kelib chiqadi. L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi nazariyasiga ko'ra, bilim tizimli tarzda, ya'ni avvalgi bilimlar bilan bog'langan holda taqdim etilganda, u o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu bilan birga, J. Brunerning spiral o'quv dasturi g'oyasi[3] va V.V. Davydovning nazariy umumlashtirish konsepsiyasi ham bilimlarni tizimli tarzda tashkil etishning shaxsning tafakkur tuzilmalarini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini asoslab beradi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirish orqali fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Pedagogik amaliyotda ko'pincha o'quv materiali bo'laklarga bo'lingan holda, bir-biridan ajratilgan tarzda taqdim etiladi. Natijada o'quvchi alohida mavzularni o'zlashtirsa-da, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ko'ra olmaydi va olingan bilimlarni yangi, notanish vaziyatlarda qo'llashda qiynaladi. Bunday holat ayniqsa tabiiy-matematik fanlarni o'rganishda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki bu fanlarning mazmuni o'zaro bog'liq tushunchalar zanjiridan iborat bo'lib, oldingi mavzuni tizimli tushunmasdan keyingisini chuqur idrok etish imkonsizdir.

Fikrlash qobiliyati pedagogik-psixologik nuqtai nazardan murakkab, ko'p komponentli hodisa bo'lib, u tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, mavhumlashtirish va umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalarning yig'indisidan iborat. Ushbu operatsiyalarning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan bilim qanday tashkil etilganiga, ya'ni u tarqoq holatdami yoki tizimli, o'zaro bog'liq tuzilma ko'rinishida taqdim etilganiga bog'liq. Shu bois zamonaviy didaktikada o'qitish jarayonini "bilim berish"dan "fikrlash usullarini shakllantirish"ga yo'naltirish tendensiyasi kuchaymoqda, bunda bilimlarni tizimlashtirish vositachi mexanizm sifatida markaziy o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda bilimlarni tizimlashtirish jarayoni nafaqat nazariy jihatdan tahlil qilinadi, balki konkret didaktik usullar (klasterlash, intellekt xaritalari, tizimli jadvashtirish) qo'llanilgan pedagogik eksperiment orqali empirik tasdiqlanadi. Bu esa mavzuni faqat tavsifiy emas, balki amaliy-tatbiqiy nuqtai nazardan ham yoritish imkonini beradi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ta'lim oluvchilardan nafaqat ko'p bilimga ega bo'lishni, balki shu bilimlarni tezkor tahlil qilish, tizimga solish va yangi vaziyatlarda qo'llay olishni talab qilmoqda. Xalqaro baholash tadqiqotlari (xususan, PISA dasturi doirasidagi tahlillar)[5] o'quvchilarning ko'p hollarda alohida faktlarni bilishi, ammo ularni tizimli tarzda bog'lab, murakkab masalalarni yecha olmasligini ko'rsatmoqda. Bu holat ta'lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirishga yo'naltirilgan metodikalarning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekistonda ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari va konsepsiyalar doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan, klasterlash, intellekt xaritalari va tizimli jadvashtirish kabi usullarni darslarga tatbiq etish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu sababli, mazkur tadqiqot bilimlarni tizimlashtirish orqali fikrlash qobiliyatini shakllantirishning empirik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan.

**Metodologiya.** Tadqiqotning maqsadi — ta'lim jarayonida qo'llaniladigan bilimlarni tizimlashtirish usullarining o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy va sintetik fikrlash qobiliyatiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti va tanlanma tarkibi sifatida umumta'lim maktablarining 8–9-sinflarida o'qiydigan 60 nafar o'quvchi tasodifiy tanlash (random sampling) usuli asosida jalb etildi. Tanlanma tasodifiy tarzda ikki teng guruhga bo'lindi: eksperimental guruh (30 nafar) va nazorat guruhi (30 nafar).



Eksperimental guruhda 8 hafta davomida o'quv materiallari klasterlash, intellekt xaritalari (mind-map) va tizimli jadvallashtirish usullari[1] asosida tizimli tarzda taqdim etildi, ya'ni har bir yangi mavzu oldingi bilimlar bilan mantiqiy bog'lab, yaxlit tizim ko'rinishida o'rgatildi. Nazorat guruhida esa o'qitish an'anaviy, tushuntirish-mustahkamlash usulida olib borildi.

Fikrlash qobiliyatini o'lchash uchun tasniflash, umumlashtirish, tahlil, sintez, mantiqiy xulosa chiqarish va tizimli bog'lanishlarni aniqlash subtestlaridan tashkil topgan o'lchov vositasidan foydalanildi. Ushbu o'lchov tadbiriq etilishidan oldin (pre-test) va tajriba yakunida (post-test) har ikki guruhda qayta o'tkazildi. Olingan natijalar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlanib, deskriptiv statistika (o'rtacha qiymat, standart og'ish) hamda ikki bog'liq tanlanma uchun t-test (paired-samples t-test) yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning ichki ishonchliligini ta'minlash maqsadida bir qator nazorat tadbirlari ko'zda tutildi. Birinchidan, eksperimental va nazorat guruhlari yosh, jinsiy tarkib va boshlang'ich akademik ko'rsatkichlari bo'yicha pre-test natijalari asosida tengligi statistik jihatdan tekshirildi (guruhlar o'rtasida boshlang'ich farq statistik ahamiyatli emasligi aniqlandi,  $p>0,05$ ). Ikkinchidan, ikkala guruhda ham bir xil o'qituvchi tomonidan, bir xil mavzular bo'yicha, faqat taqdim etish usulida farqlanuvchi darslar olib borildi, bu esa o'qituvchi omilining natijalarga ta'sirini cheklash imkonini berdi. Uchinchidan, o'lchov vositasining ichki barqarorligi Kronbax alfa koeffitsienti orqali tekshirilib, qoniqarli daraja ( $\alpha>0,75$ ) qayd etildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: tayyorgarlik bosqichida o'lchov vositasi tanlandi va sinovdan o'tkazildi, ta'lim jarayoni esa eksperimental guruhda tizimlashtirishga asoslangan, nazorat guruhida esa an'anaviy usulda 8 hafta davomida tashkil etildi; yakuniy bosqichda esa post-test o'tkazilib, ikki guruh natijalari statistik jihatdan qiyoslandi. Bunday uch bosqichli tuzilma natijalarning ishonchliligini oshirish va eksperimental ta'sirning sof ko'rinishida namoyon bo'lishini ta'minlash maqsadida tanlandi.

**Jadval-1.**

**Eksperimental guruhda bilimlarni tizimlashtirish usullari qo'llanilishidan oldin va keyingi fikrlash qobiliyati ko'rsatkichlarining deskriptiv statistik tahlili (N = 30)**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>Pre-test (o'rtacha)</b>	<b>Pre-test (SD)</b>	<b>Post-test (o'rtacha)</b>	<b>Post-test (SD)</b>
Tasniflash (klassifikatsiya) qobiliyati	51.2	8.4	68.7	7.1
Umumlashtirish qobiliyati	49.8	9.1	66.3	7.9
Tahlil qilish qobiliyati	53.6	8.0	69.5	6.8
Sintez qilish qobiliyati	47.5	9.7	63.9	8.3
Mantiqiy xulosa chiqarish	52.1	8.6	67.2	7.4
Tizimli bog'lanishlarni aniqlash	46.9	10.2	65.8	8.0

*(deskriptiv statistika, N = 30)*

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eksperimental guruhda barcha ko'rsatkichlar bo'yicha post-test natijalari pre-test natijalariga nisbatan sezilarli darajada o'sgan (t-test natijalariga ko'ra farqlar  $p<0,05$  darajasida statistik ahamiyatli). Eng yuqori o'sish tizimli bog'lanishlarni aniqlash (46.9dan 65.8ga, ya'ni ~18.9 ballga) va sintez qilish qobiliyati (47.5dan 63.9ga, ~16.4 ballga) ko'rsatkichlarida qayd etildi. Bu esa bilimlarni tizimli tarzda taqdim etish, avvalo, o'quvchining ayrim elementlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'ra olish va ularni yaxlit tuzilmaga birlashtirish qobiliyatini rivojlantirishini ko'rsatadi. Nazorat guruhida esa shu davr ichida



o‘rtacha ko‘rsatkichlarning o‘sishi ancha past (3–5 ball atrofida) bo‘lib qoldi, bu esa an‘anaviy o‘qitish usulining tizimli fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligi cheklanganligini anglatadi.

**Muhokama.** Olingan natijalar bilimlarni tizimlashtirishga asoslangan didaktik yondashuvning o‘quvchilarda tafakkurning yuqori darajadagi shakllarini — tahlil, sintez va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Bu natija L.S. Vygotskiyning bilim tarkibiy jihatdan tizimlashtirilganda o‘quvchining mustaqil fikrlash zonasi kengayishi haqidagi qarashlari, shuningdek V.V. Davydovning nazariy umumlashtirish nazariyasi bilan uyg‘undir, unga ko‘ra o‘quvchi alohida faktlardan emas, balki umumiy tamoyil va tizimli bog‘lanishlardan kelib chiqib fikrlashni o‘rganishi lozim.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari klasterlash va intellekt xaritalari kabi vizual tizimlashtirish vositalarining o‘quvchi xotirasidagi izolatsiyalangan ma‘lumotlarni mantiqiy tuzilmaga aylantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bunday usullar o‘quvchiga nafaqat mavjud bilimlarni eslab qolish, balki ular orasidagi yangi bog‘lanishlarni mustaqil topish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida tanqidiy va ijodiy fikrlashning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, nazorat va eksperimental guruh natijalaridagi farq shuni ko‘rsatadiki, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan o‘qitish usulining tanlanishiga bog‘liq bo‘lib, bu borada o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va dars jarayonida tizimlashtirish vositalaridan izchil foydalanishi muhim rol o‘ynaydi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ta‘lim jarayonida bilimlarni tizimlashtirishga asoslangan didaktik usullarning o‘quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Klasterlash, intellekt xaritalari va tizimli jadvashtirish usullarini qo‘llagan eksperimental guruhda tasniflash, umumlashtirish, tahlil, sintez va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori o‘sishni namoyish etdi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar berish mumkin: birinchidan, o‘quv dasturlarini loyihalashtirishda mavzular orasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni aniq belgilab, bilimlarni izchil tizim sifatida taqdim etish lozim; ikkinchidan, darslarda klasterlash, intellekt xaritalari va tizimli jadvallar kabi vizual-tizimlashtiruvchi usullardan muntazam foydalanish tavsiya etiladi; uchinchidan, o‘qituvchilarning malakasini oshirish dasturlariga bilimlarni tizimlashtirish metodikasi bo‘yicha alohida mavzularni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, bilimlarni tizimlashtirishga asoslangan ta‘lim metodikasini kengroq joriy etish nafaqat o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, balki ularning mustaqil bilim olish va muammolarni ijodiy yecha olish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
3. Bruner J.S. *The Process of Education.* – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
4. Davydov V.V. *Виды обобщения в обучении.* – Moskva: Pedagogika, 1972. – 424 s.
5. Ausubel D.P. *Educational Psychology: A Cognitive View.* – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – 685 p.
6. Piaget J. *The Psychology of Intelligence.* – London: Routledge, 1950. – 192 p.
7. Talyzina N.F. *Управление процессом усвоения знаний.* – Moskva: MGU, 1984. – 345 s.
8. Hattie J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement.* – London: Routledge, 2009. – 392 p.



9. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 148 b.

10. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 180 b.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ  
АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

# ГУВОҲНОМА

№ 720096

## "FAN ISTIQBOLLARI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги  
гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ  
С-5669787

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)  
311171430

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ  
16.04.2025дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)  
Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Хужа Мушкин МФЙ, Алпомиш кучаси, 9-уй, 29-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН  
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий  
коммуникациялар агентлиги

16.04.2025 09:01  
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



## Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

## Қўшимча маълумотлар

## Қўшимча маълумотлар

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
OLIMLAR NIGONI ilmiy-ommabop jurnali	o'zbek tili, rus tili, ingliz tili	Журнал

## ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Вилоят	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий



**“OLIMLAR NIGOHI”  
ILMIY OMMABOP JURNALI**  
**№ 6-son, 2026**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy  
**Elektron manzil:** <https://fanistiqbollari.uz>  
**Telegram raqami:** +998 (93) 689-80-90

**“Olimlar nigohi” ilmiy ommabop jurnal.  
Buxoro, 2026. № 6-Son.**